

“QUTADG‘U BILIG” DOSTONIDAGI RAMZIY OBRAZLAR

Matyoqubova Zilola Halilullayevnaayevna

Alfraganus Universiteti magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘zbek adabiyoti noyob durdonasi bo‘lmish “Qutadg‘u bilig” asari va uning jahon adabiyotida tutgan o‘rni, ramz haqida mushohadalar o‘z ifodasini topgan. Shu bilan birga ijodkor mahoratiga alohida to‘xtalib o‘tiladi. Badiiy adabiyotning inson tafakkuri va muvaffaqiyyatida qanchalik muhim ekanligi ko‘rsatiladi. Maqolada “Qutadg‘u bilig” asarining o‘rganilishi, ahamiyati va jahon adabiyotida tutgan o‘rni haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: *“Qutadg‘u bilig”, O‘gdulmish, O‘zgurmish, Kuntug‘di, Oyto‘ldi, bahs-munozara, adolat, davlat, aql, qanoat.*

Kirish

Yusuf Hos Xojibning “Qutadg‘u bilig”(Saodatga yo‘llovchi bilim) asari turkiy adabiyotning, jumladan, o‘zbek adabiyotining nodir va qadimiy yodgorliklaridan biri hisoblanadi. Muallifning asar muqaddimasida xabar beri-shicha, bu kitob o‘z davridayoq keng tarqalib, mashhur bo‘lgan. Ushbu asar nafaqat o‘z zamonining ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotini aks ettiradi, balki undagi ramziy obrazlar orqali insoniyatning abadiy ma'naviy qadriyatlarini ham yoritadi. Asarda ular o‘rtasida savol-javob, munozara kechadi. Yusuf Xos Hojib ana shu qahramonlarning savol-javobi, suhbatlari orqali o‘zining ilg‘or falsafiy qarashlarini, jamiyatni adolat bilan boshqarish, kishini tugallikka yetaklovchi fikrlarini bayon etadi, kishilar orasidagi insoniy munosabatlar, axloq-odobdan saboq beradi. Muallif bahsli masalalar yuzasidan ham axloq-odob, ilm, insoniylik va adolat doirasida fikr yuritadi hamda podshoh va amaldorlardan tortib dehqonu hunarmandgacha — jamiyatdagi barcha toifalarning huquq va burchlari haqida o‘z mulohazalarini bildiradi.

Asosiy qisim

Borliq haqidagi bilimlarga to'xtalgan Yusuf Xos Hojib odam bilishi mumkin bo'lmagan narsa, bilim bilan yechilmaydigan jumboq yo'q, bilim tufayli osmon sari ham yo'l ochiladi, deydi; bilish uchun esa tinmasdan o'rganish lozim, deb uqtiradi. "Qutadg'u bilig" asarida ijodkorning odob-axloq, o'g'il-qiz tarbiyasi, halollik, chin insoniylik, kishilikning ulug' hislatlari, kishining ma'naviy dunyosi, komil inson haqidagi teran falsafiy qarashlari badiiy shaklda bayon etilgan. Ulug' mutafakkir falsafasi o'rta asrlar Sharq falsafiy qarashlarining cho'qqisida turadi.

"Qutadg'u bilig"– baxt-u saodat kitobi. Asarni o'qib, ibrat olgan, undagi ko'rsatmalarga amal qilgan kishilarga saodat eshiklari ochiladi. Bu xususda adib shunday yozadi:

*Kitab ati urdum "Qutadg'u bilig",
Qutadsu, o'qig'liqa tutsu elig.*

*(Kitobga "Qutadg'u bilig" deb ot qo'ydim,
Baxtga eltsin, o'qigan kishining qo'lidan tutsin).*

Ushbu maqolada asardagi ramziy obrazlar, ularning mazmuni va ahamiyati tahlil qilinadi.

"Qutadag'u bilig" dostonini yaratar ekan, muallif o'z oldiga qoraxoniylar davlati hokimiyatini mustahkamlash, Tavg'achxon bilan Eloqxonlar o'rtasidagi ixtiloflarni bartaraf etish, hukmron doiralarning turli ijtimoiy tabaqalarga munosabatini belgilash, ma'rifat va obodonchilik uchun kurash, yaxshi xulq-odobni targ'ib qilish kabi maqsadlarni qo'ygan. Bu bilan Yusuf Xos Hojib o'z davrining yirik ma'rifatparvari va donishmandi sifatida gavdalanadi. „Qutadg'u bilig“ markaziga 4 masala qo'yib, ularni 4 obraz vositasida ochib beradi. Ular asosida inson ruhiyatini, axloqiy qadriyatlarni va jamiyatdagi munosabatlarni ifodalovchi ko'rinishlar yasaydi. Dostondagidagi asosiy obrazlar ma'nosini anglatadi va asarda adolatga, davlatga, qanoatga, bilim va aqlga bo'lgan e'tiborni kuchaytiradi. Ya'ni 4 obraz orqali ramzlarni jonlantiradi. Ayni paytda asarda ular muayyan lavozim egasi sifatida ko'rinadi.

Kuntug‘di – elig (hukmdor) – Adolat timsoli.

Bu qahramon adolat timsoli sifatida asarda muhim rol o‘ynaydi. Kuntug‘di —hukmdorlik va rahbarlik fazilatlarini namoyon etuvchi shaxs bo‘lib, u adolatni, to‘g‘rilikni va xalqning farovonligini ta‘minlashga intiladi. Kuntug‘di obrazida adolatning ahamiyati va uning jamiyatdagi roli keng tarqalgan fikrlar bilan ifodalanadi. U xalq oldida mas‘uliyatli bo‘lib, o‘z vazifasini bajarishda har doim adolatli va haqqoniy bo‘lishga intiladi. Muallif adolatni nafaqat shaxsiy fazilat sifatida, balki davlat boshqaruvidagi asosiy tamoyil sifatida ham ko‘rsatiladi.

“Qutadg‘u bilig”da Kuntug‘dining xarakteri va xulq-atvori orqali adolat —rahbarlik va insoniyatning axloqiy qadriyatlaridan biri ekanligi chuqur fikrlar asosida aks ettirilgan. Shu tariqa, Kuntug‘di obrazining o‘rni va ahamiyati asarning ma‘nosini yanada boyitad, asar markazidagi asosiy qahramonlardan biriga aylantiriladi.

Oyto‘ldi – vazir – Davlat timsoli.

“Qutadg‘u bilig” dostonida Oyto‘ldi, davlatning ma‘muriy va siyosiy tizimini ifodalovchi timsol sifatida tasvirlangan. Oyto‘ldi vazir, o‘zining aqlli va dono fikrlari bilan davlat ishlarini yuritadi. U adolatli, bilimdon va tajribali shaxs sifatida ko‘rsatiladi. Davlatning barqarorligi va rivojlanishi uchun uning roli juda katta. Oyto‘ldi vaziri ko‘plab masalalarda hukmdorga maslahat beradi va xalq manfaatlarini himoya qiladi. Bu timsol orqali muallif davlat boshqaruvi, adolat va ilm-fanning ahamiyatini ta‘kidlaydi. Oyto‘ldi vazir obrazida yurtni boshqarishdagi dono siyosat, adolatli qarorlar qabul qilish va xalqni qo‘llab-quvvatlash kabi g‘oyalar aks ettirilgan. Qutadg‘u bilig asaridagi Oyto‘ldi timsoli, shuningdek, o‘z zamonasining ijtimoiy-siyosiy muammolarini ham aks ettiradi. Bu esa badiiy adabiyotda insoniyat tarixidagi murakkab masalalarni tadqiq etishga imkon beradi.

O‘gdulmish – vazirning o‘g‘li (otasining vafotidan keyin vazir) – Aql timsoli.

O‘gdulmish — bu asardagi muhim qahramonlardan biri bo‘lib, u vazirning o‘g‘lidir. Aql timsoli esa asarda aqllilik va donolikni ifodalaydi. O‘gdulmish o‘zining aqlli fikrlari va mahorati bilan ajralib turadi. U nafaqat otasining merosini davom ettiradi, balki o‘zining dono qarorlari

bilan jamiyatda ijobiy o'zgarishlarga erishishga intiladi. Aql timsoli esa uning harakatlarida asosiy rol o'ynaydi, chunki dono fikrlar har doim muvaffaqiyatga olib keladi. Asar orqali muallif aqllilik, donolik va adolat kabi qadriyatlarni yuksak baholaydi hamda bu xususiyatlarning jamiyatdagi ahamiyatini ko'rsatadi. O'gdulmish xarakteri orqali muallif, nafaqat, o'sha davrni, balki har davrga mos bo'lgan qimmatli saboqlarni yetkazishga intiladi.

O'zg'urmish – Oyto'ldining uzoq qarindoshi, zohid – Qanoat (ofiyat) timsoli.

O'zg'urmish qanoat (ofiyat) timsoli sifatida asarda ahamiyatli o'rin tutadi va har qanday holatga moslashuvchanlikni sabr va shukr qilish orqali ifodalaydi. Bu timsol insonning hayotdagi qiyinchiliklarga qanday munosabatda bo'lishi kerakligini, muammolarga yechim topishda sabr-toqatli bo'lishni va qanoat bilan harakat qilish lozimligini ta'kidlaydi. Timsol shu bilan birga, insonning ichki dunyosidagi muvozanatni saqlab qolish, hayotdagi turli xil sinovlarga bardosh berish qobiliyatini ham aks ettiradi. O'zg'urmish orqali muallif o'quvchiga hushyorlik va aql-idrok bilan yashashning ahamiyatini ham yetkazishga urinadi.

Xulosa

Xulosa o'rnida shuni ayto'lamanki, asarda jamiyat qurilishi va davlat boshqaruvi masalalari, barcha amaldorlarning burch va mas'uliyatlari, boshqaruv tizimida qonun va adolatning ustuvorligi, huquqiy masalalarga ham yetakchi urg'u berilgan. Shuning uchun ushbu kitob o'z davrida qoraxoniylar davlatining Nizomi darajasiga erishdi. Bulargina emas, dostonda dunyoning yaralishi, koinotning tuzilishi to'g'risida ham fikr yuritiladi. Bu masalada Yusuf Xos Hojib Sharqdagina emas, dunyo astronomiya bilimida ancha ilg'orlab ketgan faylasuflardan sanaladi. Shu sababdan asarni o'rganish, nafaqat, turkiy xalqlar taraqqiyoti uchun, balki butun dunyo xalqlari turmush tarzining rivojida muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunga qadar bir qator dunyo olimlari tomonidan o'rganilgan „Qutadg'u bilig"ning 3 qo'lyozma nusxasi fanga ma'lum: ulardan biri uyg'ur yozuvida ko'chirilgan bo'lib (1439, Hirot), Vena Saroy kutubxonasida saqlanadi; arab yozuvida ko'chirilgan 2 nusxadan biri Qohirada (1896-yil shu yerda topilgan), ikkinchisi (1913-yil

Namangandan topilgan va 1925-yil Abdurauf Furqat tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan) Toshkentda, O‘zFA Sharqshunoslik institutida saqlanmoqda. Asarning ilk nashri H.Vamberi tomonidan amalga oshirilgan (1870). Shundan keyin bu asar V.Radlov (1890; 1910), S.Ye.Malov (1929; 1951), R.R.Arat (1942; 1943; 1947; 1959), Q.Karimov (1971), B.To‘xliyev (1989), uyg‘ur olimlari (1984) tomonidan nashr etildi. Asar ingliz, nemis, fransuz, rus, chex, turk, uyg‘ur, xitoy va boshqa tillarga tarjima qilingan. Uni J.Amade, A.Fitrat, R.Arat, Ye.E.Bertels, H.Vamberi, V.Radlov, S.Malov, A.N. Kono-nov, S.N.Ivanov, D.Nasilov, A.Valitova, G‘.Abdurahmonov, Q.Karimov, B.To‘xliyev, Q.Sodiqov va boshqa chet el va o‘zbek olimlari o‘rganganlar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mallayev N., O‘zbek adabiyoti tarixi, T., 1976;
2. O‘lmas obidalar, T., 1989; To‘xliyev B.,
3. Yusuf Xos Hojibning „Qutadg‘u bilig“ asari, T., 1991;
4. Buyuk siymolar, allomalar, 1-kitob, T., 1995;
5. Homidiy H., Ko‘hna Sharq darg‘alari, T., 1999;
6. Turdiyeva Y. Ўзбек адабиётида бадий услуб ҳодисаси. Elektron 2025 йил 14 октябрдаги Тил адабиёт ва журналистика таълими муаммо ечим ва истиқболлар мавзусидаги халқаро илмий-амалий конференсиya.
<https://doi.org/10.5281/zenodo.17601707>
7. Рахмонов, А. К. (2025). Абулфатҳ Бурҳониддин Носир Мутарризий–ўрта аср шарқ илмий меросининг ёрқин намоёндаси. *Oriental Journal of Philology*, 5(3), 549-560.
8. Eshonqulova S. [Islomgacha va islom dini bilan bog‘liq tarixiy shaxslar obrazi](#) / “Turkiy xalqlar adabiyoti tadqiqida innovatsion yondashuvlar” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya Nukus, 2025. – B. 12-18.

9. Mahmudova, S. A. (2019). The concept of psychologism in the literature, techniques and methods of psychological image. *Научные ведомости*, (10), 46-50.
10. Ibragimova, D. Isajon Sultonning “Robiya Balxiy” qissasida tarixga yondashuv tamoyillari. *filologiya va pedagogika*, 78.
11. Xujayev, M. I. (2021). ZAKI VALIDIYNING TURKISTON ILMIY SAFARI (1913-1914) GA OID TADQIQOTLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(11), 776-788.
12. Saifnazarov, I., Musaev, F., Khusanov, B., Ernazarova, Y., Xujaev, M., Bekbaev, R., & Ochilova, N. (2025). The Impact of Local Community Education on Sustainable Practices in Eco-Tourism Areas. *Natural & Engineering Sciences*, 10(3).
13. Mirzayevich, I. G. Phraseologisms as a Representation of Culture, History, Folklore: Central Asian Languages (on Material of Uzbek, Kazakh and Karakalpak Languages).
14. Xujaev, M. (2020). Mahmudkhuja Behbudiy as a leader of jadid reforms. *The Light of Islam*, 3, 39-47.
15. Mirzaevich, G. I. (2026). Ethnic Stereotypes in the Phraseologisms of the Uzbek, Kazakh and Karakalpak Languages. *Asian Journal of Arts and Culture*, 26(1), e23-e23.
16. Evlen, H., Juraev, D., Ziyamukhamedova, U., Khujaev, M., & Jalilov, F. (2025). PLA/Ti6Al4V composite scaffolds for bone tissue engineering: mechanical and thermal properties via FDM and bioprinting. *Journal of Biomaterials Science, Polymer Edition*, 1-25.